

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUOCULTURAL APPROACH TO THE TRANSLATION OF SUBSTANDARD VOCABULARY IN ENGLISH LITERATURE INTO UZBEK (ON THE EXAMPLE “THE ADVENTURES OF TOM SAWYER” BY MARK TWAIN)*****Dilafruz Numonjonovna Satimova****Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor**Andijan State Institute of Foreign Languages*[*dilmus09@gmail.com*](mailto:dilmus09@gmail.com)*Andijan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: substandard lexis, linguocultural approach, linguocultural equivalence, literary translation, functional equivalence, calquing, phraseological units, The Adventures of Tom Sawyer, Mark Twain.

Received: 05.12.25**Accepted:** 06.12.25**Published:** 07.12.25

Abstract: This article examines the role and significance of the linguocultural approach in translating substandard lexis from English into Uzbek, using Mark Twain's *The Adventures of Tom Sawyer* as a case study. The research demonstrates that the complexity of translating substandard lexis lies primarily in fully rendering its national-cultural content, stylistic coloring, and social function in another language. It is argued that, in the translation process, strategies such as functional equivalence, calquing, cultural adaptation, and compensation based on Roman Jakobson's principle of “equivalence in translation” are necessary. The analysis, conducted on the basis of Ilyos Muslim's Uzbek translation, shows how substandard units are stylistically, semantically, and culturally reproduced in the target language. The findings highlight that translating substandard lexis in English literary texts requires a linguocultural approach that accounts for semantic and stylistic differences between the two cultures to accurately convey the author's colloquial, emotional, and socially marked expressions. The conclusions of the study hold practical value for literary translation practice, linguoculturology, lexicology, phraseology, and translation theory.

INGLIZ BADIY MATNIDA SUBSTANDART LEKSIKANING O'ZBEK TILIGA TARJIMASIDA LINGVOMADANIY YONDASHUV (MARK TVENNING "TOM SOYERNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI" ASARI MISOLIDA)

Dilafruz Numonjonovna Satimova

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Andijon davlat chet tillari instituti

dilmus09@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: substandart leksika, lingvomadaniy yondashuv, lingvokulturologik ekvilib, badiiy tarjima, funksional ekvivalentlik, kalkalash, frazeologik birliklar, "Tom Soyerning sarguzashtlari", Mark Tven.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asari misolida ingliz badiiy matnidagi substandart leksikaning o'zbek tiliga tarjimasida lingvomadaniy yondashuvning o'rnini va ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot substandart leksikaning tarjimada murakkabligi, avvalo, ularning milliy-madaniy mazmunini, uslubiy rangini va ijtimoiy vazifasini boshqa tilda to'liq aks ettirish bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Tarjima jarayonida R. Jakobson ilgari surgan "tarjimadagi ekvivalentlik" tamoyili asosida funksional ekvivalentlik, kalkalash, madaniy moslashtirish, kompensatsiya kabi strategiyalar qo'llanishi zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqotda Ilyos Muslim tarjimasi materiallari asosida substandart birliklarning o'zbek tilida uslubiy, semantik va madaniy jihatdan tiklanganligi tahlil qilinadi. Olingan natijalar ingliz badiiy matnidagi substandart leksika tarjimasida ikki madaniyat o'rtasidagi semantik va stilistik tafovutlarni hisobga olish, muallif uslubining xalqona, emotsional va ijtimoiy qatlamlarini yetkazish uchun lingvomadaniy yondashuv zarur ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot xulosalari badiiy tarjima amaliyoti, lingvokulturologiya, leksikologiya, frazeologiya va tarjima nazariyasi uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ ПОДХОД К ПЕРЕВОДУ СУБСТАНДАРТНОЙ ЛЕКСИКИ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА МАРКА ТВЕНА "ПРИКЛЮЧЕНИЯ ТОМА СОЙЕРА")

Дилафруз Нумонжоновна Сатимова

Доктор филологических наук (DSc), доцент

Андижанский государственный институт иностранных языков

dilmus09@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: субстандартная лексика, лингвокультурологический подход, лингвокультурологический эквивалент, художественный перевод, функциональная эквивалентность, калькирование, фразеологические единицы, «Приключения Тома Сойера», Марк Твен.

Аннотация: В данной статье на материале произведения Марка Твена «Приключения Тома Сойера» освещается роль и значение лингвокультурологического подхода при переводе субстандартной лексики английского художественного текста на узбекский язык. Исследование показывает, что сложность передачи субстандартной лексики в переводе прежде всего связана с необходимостью адекватно воспроизвести её национально-культурное содержание, стилистическую окраску и социальную функцию в другом языке. Обосновывается необходимость применения таких стратегий, как функциональная эквивалентность, калькирование, культурная адаптация и компенсация, опираясь на принцип «эквивалентности в переводе», предложенный Р.Якобсоном. На материале перевода Ильёса Муслима анализируется степень воссоздания субстандартных единиц в узбекском языке с точки зрения стилистики, семантики и культурных особенностей. Полученные результаты демонстрируют, что при переводе субстандартной лексики английского художественного текста требуется учитывать семантические и стилистические расхождения между двумя культурами, а также необходимость точной передачи народного, эмоционального и социально маркированного пласта авторского стиля. Выводы исследования представляют практическую ценность для художественного перевода, лингвокультурологии, лексикологии, фразеологии и теории перевода.

Kirish. Tarjimashunoslikda, ayniqsa, lisoniy strukturalari va madaniy paradigmalari keskin farq qiluvchi turli tizimli tillar o'rtasida tarjima amalga oshirilganda, bir qator metodologik yondashuvlar, izchil tamoyillar, tarjimaning interpretatsiyasiga va uning funksional muqobilliligiga chuqur e'tibor zarur. Tarjima jarayonida birlamchi usullardan tashqari bir qator quyidagi interpretatsiya uslublari ham mavjud:

- 1) *adaptatsiyali (soddalashtirish, yengillashtirish, muvofiqlashtirish);*
- 2) *antonimik (zid, ammo monand birikmalar yordamida);*

- 3) *transliteratsiya (grafik obrazini tizimlashtirish);*
- 4) *transkripsiya (so'zlarni tarjima tili grafikasiga o'g'irish yordamida);*
- 5) *transpozitsiya (so'zlarning grammatik va sintaktik tartibini o'zgartirish);*
- 6) *modullashtirish (ma'nosi saqlangan holda iboralarni berish);*
- 7) *kalkalash (tarkibiy qismlarini alohida ajratgan holda);*
- 8) *erkin tarjima (muallifning emas tarjimonning ijodiy uslubi ustunligi);*
- 9) *ijodiy tarjima (kitobxonga ma'qul bo'ladigan so'z san'ati, ijodiy mazmuni, intonatsiyasi, manerasi);*
- 10) *so'zma-so'z tarjima (to'g'ridan-to'g'ri hech qanday o'zgarishlarsiz);*
- 11) *hijjaviy tarjima (shakily o'xshashlikka asoslangan mexanik tarjima) va h.k [7, 135].*

Adabiyotlar tahlili va metodlar. V.Vinogradovning lingvistik moslashuv nazariyasiga ko'ra, bir-biriga aloqador bo'lmagan tillar o'rtasidagi tarjimalar nafaqat lug'aviy ekvivalentlarni topishni, balki sintaktik va uslubiy darajadagi o'zgartirishlarni ham talab qiladi, bu esa funksional ekvivalentlikka erishish imkonini beradi [1, 75]. R.Yakobson esa lingvistik tizimlarning struktural farqlari modulyatsiya, moslashtirish va transpozitsiya kabi transformatsiyalarni talab qilishini ta'kidlagan [3, 114]. Ushbu strategiyalar tarjimonda asl matn mazmunini saqlagan holda, uni tarjima qilinayotgan tilning lisoniy imkoniyatlari bilan moslashtirish va shu orqali tarjimaning semantik aniqligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Jan Pol Vinay va Jin Darbelne esa "Fransuz va ingliz tili stilistikasining qiyosiy tahlili" asarida tarjima transformatsiyalarini tizimli o'rganish metodologiyasini taklif etgan [11, 167]. Ularning yondashuvi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tarjima usullarini o'z ichiga oladi, jumladan, kalka, transpozitsiya, modulyatsiya, ekvivalentlik va moslashtirish. Bu usullar idiomalar, stilistik belgilar va madaniy jihatdan maxsus ifodalarni tarjima qilishda qo'l keladi. Shuningdek, R.Yakobson o'zining "Tarjimaning lingvistik jihatlari" asarida tarjima jarayonlarini uch toifaga bo'lgan: interlingvistik (tillararo), intralingvistik (bir til ichida) va intersemiotik (belgi tizimlari o'rtasida)[4, 230]. Tillararo tarjima eng keng tarqalgan bo'lib, u bir tilning mazmunini boshqa tilda aks ettirishni nazarda tutadi. Bu tasnif tarjimini lingvistik chegaralardan tashqarida o'rganishga imkon beradi.

Adabiy tarjimada formal til me'yorlaridan chetga chiqadigan substandart leksik birliklarni tarjima qilish murakkab jarayon bo'lib, bu til birliklarini lingvomadaniy jihatdan chuqur tahlil qilishni talab etadi. Substandart leksika – kollokvializm, sleng, jargon, argo, dialektal shakllar, o'zlashmalar kabi elementlarni qamrab oladi hamda adabiy matnlarda ijtimoiy tabaqalanish, qahramonlarning o'ziga xos tili hamda matnning originalligini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olim V.Vinogradov ta'kidlaganidek, substandart leksika "adabiy til me'yorlaridan chetga chiqadigan, odatiy grammatik va lug'aviy qoidalariga mos kelmaydigan

shakllar” [2, 96] sifatida o‘zini namoyon etadi. Bu birliklar qahramonlarning ijtimoiy muhitini, emotsional rang-barangligini va ularning shaxsiyatini aniqlashni osonlashtiradi.

Tadqiqotimizda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

- Qiyosiy-chog‘ishtirma metod – ingliz va o‘zbek tillaridagi substandart birliklarni semantik-pragmatik nuqtayi nazardan taqqoslandi;
- Lingvomadaniy tahlil – substandart leksikaning milliy-madaniy mazmunini ochib berildi;
- Kontekstual tahlil – substandart birliklarning matndagi vazifasi aniqlandi;
- Komponentli-semantik tahlil – substandart birliklarning ma’no tarkibi tahlil qilindi;
- Tarjima strategiyalarini tahlil qilish – ekvivalentlik, moslashtirish, kompensatsiya kabi usullarni tog‘ri qo‘llanishi uchun tamoyil tavsiya etildi.

Natijalar va muhokama. Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” asari Amerika xalq so‘zlashuvining turli birliklari ishlatilgan shunday tahlil uchun bebaho manba bo‘la oladi. Ular asarga haqiqiylik, obrazlilik va yorqinlik baxsh etadi. Substandart leksikani tarjima qilishda muammolar aynan shu birliklarning madaniy konnotatsiyasi va lingvistik xususiyatlarining boshqa tilda to‘g‘ri aks ettirilmasligi bilan bog‘liqdir. R.Jakobson ta’kidlaganidek, “tarjimadagi ekvivalentlik” (equivalence in translation) [4, 233] tarjima jarayonining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, bunda substandart leksik birliklarni ijtimoiy va uslubiy funksiyalarini saqlab qolgan holda moslashtirish talab etiladi.

Mark Tvenning asarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda bunday lisoniy boylikni va madaniy kontekstni saqlab qolish, asarning uslubiy o‘ziga xosligini ifoda etish uchun funksional ekvivalentlik, adekvat, analog va kontekstualizatsiya kabi tarjima strategiyalarini qo‘llash nihoyatda muhim. Sababi, badiiy tarjimada intuitsiya bilan tahlil, ilhom bilan qiyos, interpretatsiya bilan aniqlik doim birga yuradi. Quruq “ilhom”ga asoslangan tarjima me’yoriz erkinlikning doyasi bo‘lgani singari, faqat til bilishning o‘ziga tayanib qilingan tarjima ham badiiy ijod namunalari shira, zavq, estetik ma’nodan mahrum etib qo‘yishi mumkin [8,113].

Q.Musayev tarjimaning bir necha turlariga to‘xtaladi: ijodiy tarjima, so‘zma-so‘z tarjima, erkin tarjima, obrazlashtirilgan (idiomalashtirilgan) tarjima, moslama tarjima, mualliflashtirilgan tarjima, tadbil tarjima, akademik tarjima, vositachi tildan tarjima [6,21]. Albatta, bu turlarning bari tarjima jarayonida tarjimon uchun qo‘r bo‘lsa-da, badiiy adabiyotda ma’lum bir xalqning turmush tarzi va tarixiy voqealari bilan bog‘liq obyektiv olam, unga xos hodisa va dalillar obrazli shaklda umumlashtirilgan holda tasvirlanadi. Obrazlilikning lisoniy ko‘rinishi esa har bir tilning o‘ziga xos semantik va sintaktik xususiyatlari asosida shakllangan frazeologik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Bu holat xalqning obrazli tafakkurida o‘ziga xosliklar mavjudligini anglatadi. Aynan shu o‘ziga xos jihatlar frazeologik birliklarda noodatiy muqoyasa va metaforik tuzilmalarning

yaratilishiga sabab bo'lib, ularning milliylik xususiyatlarini belgilab beradi. Shuning uchun, doim ham bu turlarning bariga yuzlana olinmaydi.


Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarida substandart leksika va iboralardan foydalanib, qahramonlarning ijtimoiy va hududiy kelib chiqishlarini ta'sirchan ko'rsatib beradi. Asarda janubiy Amerika mintaqasiga xos bo'lgan XIX asr oxirlariga oid sheva, jargon va norasmiy uslubdagi iboralar keng qo'llanilgan. Romanda personajlar nutqida turli substandart til birliklari keng qo'llangan. Quyida asarda uchraydigan substandart qatlamlar kategoriyalari chastotasi jadval ko'rinishida keltirilgan:

1-jadval. Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" romanidagi substandartlar

№	Substandartlar	Ingliz tilidagi miqdoriy ko'rsatkichi
1	Quyi kollokvializm	159
2	Dialektal leksika	126
3	Slenglar	48
4	Vulgar so'zlar	37
5	O'zlashmalar	31
6	Argolar	24
7	Jargonlar	8
8	Umumiy ko'rsatkich	433

Shunday qilib, tahlillarimiz asosida Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" qissasida jami 400 dan ortiq substandart leksika ishtirok etgan bo'lib, ularning eng yuqori ulushi quyi kollokvializmlarga to'g'ri keladi — 159 ta (39.75%). Shuningdek, dialektal leksika 126 ta (31.5%) bilan ikkinchi o'rinda, undan keyin esa sleng 48 ta (12%) bilan uchinchi o'rinda turadi. Asarda vulgar so'zlar 37 ta (9.25%), o'zlashmalar (ispan, golland, nemis tillaridan) 31 ta (7.75%), argo 24 ta (6%) va eng kam ishlatilganlari jargonlar 8 ta (2%) ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar asarda davr koloritini, xalqona nutq ohangini va ijtimoiy qatlamlar tilini tasvirlashda substandart leksikaning, ayniqsa quyi kollokvial va dialektal birliklarning yetakchi rol o'ynaganidan dalolat beradi:

Badiiy adabiyotda muayyan xalqning turmush tarzi va tarixiy voqealari bilan bog'liq obyektiv olam, unga xos hodisa va dalillar obrazli shaklda umumiyashtirilgan holda tasvirlanadi. Obrazlilik esa har bir tilning o'ziga xos ma'no va sintaktik xususiyatlari asosida shakllangan frazeologik birliklar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu omillar frazeologik birliklarda noodatiy o'xshatish va metaforik iboralarni yaratib, ularning milliylik xususiyatlarini belgilab beradi.



1-rasm. Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" qissasidagi substandart birliklar

Har bir tilning frazeologik fondi ijtimoiy-tarixiy voqealar, axloqiy-ma'naviy va madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ana shunday frazeologizmlar, o'zining milliy rang-barangligi bilan muayyan lisoniy jamoaning lisoniy va madaniy xususiyatlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, ular tilning xalqchil tabiatini belgilash va badiiy asarda milliy kolorit yuzaga keltirishda muhim omil sanaladi.

Frazeologik birliklarning milliy xosligi, avvalo, ularning tarkibida o'ziga xos milliy tushunchalarni aks ettiruvchi so'zlarning qo'llanishiga borib taqaladi. Masalan, ayrim frazeologik birikmalar komponentlarida bevosita shu til jamoasiga xos etnik nomlar yoki xalq nomlari uchrashi mumkin. Bunday unsurlar orqali frazeologizmlar lisoniy tizimning madaniy-genetik o'ziga xosligini chuqurroq namoyon etadi.

Tarjima amaliyotida milliy xususiyatga ega substandart frazeologik birliklarni o'zbek tiliga o'girishning eng ko'p uchraydigan usullaridan biri kalkalash hisoblanadi. To'liq kalkada asl ibora tarkibiy jihatdan so'zma-so'z tarjima qilinsa, yarim kalkada ba'zi bo'laklar (so'zlar yoki morfemalar) boshqa tildagi unsurlar bilan uyg'unlashadi. Agar asliyat matndagi frazeologik birlik aniq mantiqiy asosga va obrazli tuzilishga ega bo'lsa va umumiy hayotiy tajribalar asosida yaratilgan bo'lsa, ko'p hollarda bu birlik bevosita moslashuv orqali tarjima tilida aks ettirilishi mumkin.

Bunday yondashuv natijasida tarjimada nafaqat frazeologik birlikning semantik va uslubiy xususiyatlari saqlanib qoladi, balki uning milliy o'ziga xosligi, ijtimoiy-madaniy mazmuni ham qayta tiklanadi. Shu tariqa, asl matndagi shakl va mazmun uyg'unligi qayta shakllanib, o'quvchining manba matnning lingvistik va madaniy manzarasi haqidagi tasavvuri kengayadi. Ba'zan bu uslub matnda barqaror uslubiy tamoyillar va badiiy-tasviriy vositalar (yoki muallifning

o‘ziga xos ijodiy uslublari) haqidagi tasavvurlarni ham boyitadi, shu bilan birga, tarjima tilining leksik imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi [11,168]. Kalkalash – substandart frazeologizmlarning mazmun-uslubiy xususiyatini hamda ularning madaniy genezisini tiklashda muhim tarjima vositasidir. Biroq, agar bu jarayon aslyatda mavjud bo‘lgan madaniy ohor, kontekst yoki funksional maqsadni hisobga olmay amalga oshirilsa, kalkalash matnning milliy-madaniy ruhini susaytirib, ziddiyat va stilistik noqisliklarga sabab bo‘lishi, natijada matnni g‘aliz yoki tushunarsiz shaklga keltirishi ehtimoldan xoli emas.

Masalan, pop one’s clogs ingliz tilida substandart (yoki ba’zan sodda nutqda qo‘llaniladigan) frazeologik birikma bo‘lib, uni so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmaydi. Biroq, bu ifoda ingliz madaniy kontekstida o‘lmoq yoki hayotdan ko‘z yummoq ma’nosida kinoyaviy yoki hazil ohangida qo‘llaniladi. Bu ibora madaniy konnotatsiyaga ega: kulgili yoki ishora ohangida kimningdir vafot etishini ifodalaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, uning ma’nosi sun’iy va tushunarsiz tus oladi. Tarjimada bunday iboralarni madaniy moslashtirish yoki ularga izoh berish lozim bo‘ladi.

Asarda qo‘llanilgan *treated like a dog – like a very dog* frazeologizmi Tom Soyer Bekki bilan arazlashib, ko‘ngli og‘rigan paytda o‘zini hech kimga kerakmas, “itdek qadrsiz” his qilganida qo‘llanilgan iboradir. O‘zbek tiliga u to‘liq kalka bo‘lib go‘yo bir it – xuddi bir it qatorida quvlab yubordi tarzida ko‘chgan. Mazkur ibora ingliz tilida kimgadir juda yomon munosabatda bo‘lish, haqoratli tarzda muomala qilish ma’nosini beradi. Tarjimon ushbu frazeologik birikmani to‘lalgicha kalkalab, Tomning o‘zini xor his qilayotganini o‘zbek o‘quvchisiga ham tushunarli tarzda yetkazgan. It obrazi o‘zbek madaniyatida ham salbiy konnotatsiyaga ega (itga o‘xshatish haqoratomuz hisoblanadi), shu bois mazmun milliy madaniy kontekstga mos keladi. Uslubiy nuqtayi nazardan, ibora o‘zbek tilida biroz noodatiy takror (bir gapda ikki marta it so‘zi) bilan chiqqan bo‘lsa-da, bu tarjimada og‘zaki nutqqa xos ta’sirni saqlagan.

What had he done? Nothing. He had meant the best in the world, and been treated like a dog – like a very dog. She would be sorry some day – maybe when it was too late. Ah, if he could only die TEMPORARILY! (The Adventures of Tom Sawyer. Mark Twain, 68)

Misol uchun mana shu qizni olsak, qani, bu unga nima yomonlik qildi? Hech narsa qilgani yo‘q-ku! Qizga yaxshilik tilar, qiz esa uni go‘yo bir it – xuddi bir it qatorida quvlab yubordi. U qachon bo‘lsa ham o‘zining shu qilgan ishlari uchun o‘kinar, balki o‘kinishning keyin hech bir foydasi bo‘lmas. Oh, vaqtincha o‘lib, qayta tirilish mumkin bo‘lsa koshki edi! (Ilyos Muslim tarjimasi, 75)

Ilyos Muslimning mazkur iboralarni tanlashi, asl matn mazmunini lingvomadaniy kompetensiya bilan, o‘zbek o‘quvchilari mentalitetiga yaqin ifoda bilan berishga imkon yaratadi.

Bunda substandart soʻzlar va idiomatik ifodalar oʻrtasida nozik muvozanat saqlanib, personajlar oʻrtasidagi suhbatning norasmiy va jonli ohangi oʻzbek tilida ham har tomonlama ifodasini topadi.

Tarjimon qoʻllagan strategiya kommunikativ va adaptatsion xarakterga ega boʻlib, asar ruhiyati va muloqot tusini toʻgʻri yetkazish maqsadida ayrim dialekt shakllarni chetlab oʻtar ekan, pirovardida matnning oʻzbek oʻquvchisi uchun ravon va oʻqishli boʻlishiga erishiladi. Shu bilan birga, tarjima asarida “substandard vocabulary” ehtiyoji ayrim joylarda maʼlum darajada qondirilib, maʼlum joylarda qoʻshilib oʻzbek oʻquvchisiga tushunarli uslub yaratilgan, deyishimiz mumkin.

Yana boshqa bir matnning asliyati va tarjimasi ham eʼtiborga loyiq:

Can't, Mars Tom. Ole missis, she told me I got to go an' git dis water an' not stop foolin' roun' wid anybody. She say she spec' Mars Tom gwine to ax me to whitewash, an' so she tole me go 'long an' 'tend to my own business – she 'lowed SHE'D 'tend to de whitewashin'. (The Adventures of Tom Sawyer. Mark Twain, 16)

Mars Tom / Tom boyvachcha. Asliyati: Mars (Masterning qisqartmasi) janubiy Amerikaning dialektal odatlariga mos.

Mars leksemasi Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” asarida XIX asrda Janubiy Amerika shevalari yoki Afro-amerikaliklar dialektini ifodalash uchun qoʻllanilgan shakllardan biridir boʻlib, shaxslarga hurmat yoki tobe ohang bilan murojaat qilinishini aks ettiradi. Substandart leksika master soʻzining qisqartma yoki ogʻzaki shakli boʻlib, qulchilik davridan qolgan yoki ijtimoiy past tabaqalarda tarqalgan norasmiy talaffuzni eslatadi: talaffuzda talaffuzda Ma's (Master) // Mars. Ushbu leksema madaniy kontekstda ijtimoiy maqom, xoʻjayin va xizmatkor munosabati yoki shunga oʻxshash iyerarxiyani ifodalaydi.

Asardagi “Mars Tom” “Master Tom” shaklining norasmiy yoki dialektal koʻrinishi bu soʻzning substandart vakili ekanini koʻrsatadi. Matnda u adabiy talaffuz meyoridan chetga chiqqan, soʻzlashuv nutqiga xos, ijtimoiy-maʼnaviy kontekst bilan bogʻliq shakl boʻlgani uchun, yuqoridagi asarda personajlarning turmush tarzi, ijtimoiy mavqeyi yoki davr ruhini taʼkidlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda qahramonning (Jim yoki boshqa quyi tabaqadagi personajning) hurmat va boʻysunish ohangini ham koʻrsatadi. Mars Tom deyilishi oʻzaro masofani yoki ijtimoiy farqni ham sezdiradi. Bu kabi dialektal (substandart) shakl, asarning davrini, muhitini va personajlarning ijtimoiy kelib chiqishini aniqroq tasvirlashga yordam beradi.

Oʻzbek tiliga tarjimada bu shakl koʻpincha Tom boyvachcha yoki xoʻjayin Tom kabi ifodalar bilan almashtiriladi. Tarjimon Mars soʻzini aynan takrorlagan taqdirda ham oʻzbek kitobxoniga sunʼiy eshitiladi, chunki bu ibora Amerika janubiga xos. Shuning uchun tarjimada madaniy moslashtirish yoki adaptatsiya yondashuvi ishlatilgan.

Tom boyvachcha iborasi asliyatda Mark Tven qo'llagan Mars Tom (ya'ni Master Tom) ifodasiga berilgan o'zbekcha talqin bo'lib, tarjimon Ilyos Muslim substandart yoki sheva ifodasini yaratishda boyvachcha so'zini tanlagan. Bu tanlovni quyidagi lingvomadaniy va uslubiy nuqtayi nazardan tahlil qilish mumkin:

1. Asliyatdagi Mars Tom ingliz tilining janubiy shevalarida Master so'zining buzilgan shakli sifatida Mars tarzida ishlatiladi. Bu quldorlik davridan qolgan hurmat yoki bo'ysunish munosabati ifodasi bo'lib, substandart nutq ko'rinishlaridan biridir.

2. Qo'llanilgan leksema dialektal ohangga ega bo'lgani bois, quyi tabaqa yoki xizmatkorlar o'z xo'jayiniga murojaat qilganda norasmiy shaklda Mars Tom deb atashgan.

O'zbek tilidagi boyvachcha so'zi ham quyidagi lingvomadaniy va leksik-stilistik jihatlariga ega:

1. Odatda kimnidir boy oilaga mansub deb ajratishda xotirjam va o'zini erkin tutadigan shaxsni (ko'p hollarda, nafaqat haqiqiy boy, balki boyboladay o'zini tutadigan kimsani) ko'rsatishda qo'llanadi.

2. Bunday ta'rif ba'zan kinoya, ba'zan haqiqiy hurmat yoki shunchaki ijtimoiy maqom ifodalashga xoslangan. Standart adabiy tilda boyvachcha shu biroz norasmiy yoki sho'x ohangga ega so'z bo'lib, boylarning bolasi yoki boy oiladan chiqqan ma'nolarida ishlatiladi.

Anglashiladiki, o'zbekcha boyvachcha so'zi nafaqat boyning o'g'li ma'nosida, balki ustuvor ijtimoiy mavqega ega kishiga ishora qiladi, shuningdek, ba'zan nosamimiy hurmat ohangini ham beradi. Mars Tom asliyatda quldorlik davridagi xo'jayin hamda quyi tabaqadagi xizmatkor nuqtayi nazarini bildirsa, tarjimada Tom boyvachcha so'zi shu ijtimoiy farqni hamda erkalangan boy bola ma'no qirrasini ifodalashi mumkin. Ushbu qirra Mars leksemasining dialektal xususiyatini o'zbek kitobxoniga tushunarli darajada yetkazadi: boyvachcha shunchaki boy oiladan chiqqan kimsa yoki ustun mavqedagi shaxsni ko'rsatadi.

Demak, tarjimondagi boyvachcha so'zi funksional ekvivalent yoki madaniy adaptatsiya usulining natijasidir. Asliyatdagi substandart / dialektal ohang Mars shaklida bo'lsa, o'zbek tilida tarjimon uni boyvachchaga aylantirib, ushbu leksik birlik bilan ijtimoiy farqni yetkazadi. Sababi, o'zbek madaniyatida boyvachcha so'zi ham kinoyaviy, ham erkalovchi, ham ijtimoiy farqni ta'kidlash ma'nosini bera oladi. Darhaqiqat, bu atama o'quvchiga Tomning ma'lum darajadagi ustun mavqesini yoki bolalarcha havolanishini bildiradi. Boyvachcha so'zi yoshlar yoki kattalar muloqotida samimiy, ba'zan kinoyaviy tushdagi substandart leksikadir. Amerika janubiy shevalariga xos bo'lgan "Mars" kabi substandart birikmalarni o'zbek mentalitetiga mos tuyg'ular bilan uyg'unlashtirish – bu tarjimada adaptatsion yondashuv namunasidir. Bunday lingvokulturologik yondashuvda tarjimon boyvachcha atamasini tanlab, shunchaki boylik yoki

ijtimoiy ustunlikni emas, balki norasmiy ustoz-shogird (yoki xo‘jayin-xizmatkor) muloqotidagi farqni hamda erkalangan boy bolaga xos hurmatni bildiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asar matnining tarjimasi, asosan, kommunikativ va adaptatsion usullarga tayangan bo‘lib, tarjimon substandart ohangni imkon qadar saqlashga intilgan. O‘zbek tilida bevosita dialektal shakllar yetarlicha aniq aks ettirilmasa, asl matndagi norasmiylik, real voqealarga yaqinlik, emotsional-ekspressiv uslub yoki oddiylik tusini qisman yo‘qotishi mumkin. Shunga qaramay, lingvokulturologik xususiyatlar qisman yumshatilgan taqdirda ham, Mark Tven asarining mazmuni va personajlarining hissiy-ma‘naviy xarakteri izchil saqlab qolinadi.

Bunda, bizningcha, asliyat va tarjima tilida lisoniy birliklarning lingvokulturologik ekvilibri (milliy-madaniy muvozanat, ya‘ni moslashuv) tamoyiliga rioya qilish zarur, ya‘ni asl matndagi har bir substandart birlik o‘zbek tilida mos, ammo o‘zbek milliy-madaniyatiga xos qirralarni ham inkor etmaydigan ifoda bilan almashtirilishi lozim. Agar ingliz tilidagi substandart birlikka o‘zbek tilida bevosita ekvivalent topilmasa, boshqa xalqona yoki oddiy so‘zlashuv uslubidagi ifodalariga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, milliy-madaniy ohorni saqlashda keyingi birlikning o‘zbek milliy-madaniyatidagi qirralariga murojaat etilishi ham lozim. Shu yo‘sinda tarjimada lingvokulturologik ekvilibri (yoki muvozanatli milliy-madaniy moslashuv) tamoyili saqlanadi: o‘zbek kitobxon o‘zining milliy madaniyatiga xos tilda yozilgan, shu bilan birga, ingliz madaniyatining o‘ziga xosliklarini ham sezdira oladigan matnni o‘qish imkoni paydo bo‘ladi.

Tarjimada bunday yondashuv kitobxonni, bir tomondan, o‘zbekcha nutqning tabiiy ifodalaridan bahramand etadi, ikkinchi tomondan esa ingliz milliy madaniyatining o‘ziga xos lisoniy unsurlarini ham qisman ilg‘ashga imkon yaratadi. Shu tariqa substandart birliklar tarjimasida ekvilibri usuliga asoslangan mazkur yondashuv – madaniy-lisoniy muvozanatni saqlash – badiiy asarning ruhiy va ijtimoiy mohiyatini o‘zbek tilida muvaffaqiyatli ko‘rsatishga erishiladi.

Quyida ikki tilda lingvokulturologik ekvilibri tamoyilini namoyon qiluvchi oddiy sxemali misol keltiriladi. Bunda so‘z tartibi o‘zgaruvchan bo‘lib, asar matnida biror substandart birlikning qanday aks etishi mumkinligi ko‘rsatiladi:

Original text (Asliyat matn)

A – linguocultural substandard (LS)


C – common lexeme (CL)

E – common lexeme

B – common lexeme

D – common lexeme

F – common lexeme



2-rasm. Asliyat matndagi substandartning vizual pozitsiyasi

Tarjima jarayoni (Tarjima matn)

A – lingvomadaniy ekvilibri (LE)


B – oddiy leksema

C – oddiy leksema (OL)

D – oddiy leksema

E – oddiy leksema

F – oddiy leksema



3-rasm. Tarjima matndagi substandartning saqlangan holati

Buni quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin:

Yes – and you meow back, if you get a chance. Last time, you kep' me a-meowing around till old Hays went to throwing rocks at me and says 'Dern that cat!' and so I hove a brick through his window – but don't you tell. (The Adventures of Tom Sawyer. Mark Twain, 54)

— Ha, men miyovlayman... Agar chiqolsang, sen ham menga javoban miyovlab qo‘y. O‘tgan safar shunday qilib, mening qancha vaqtimni olding. Men o‘sha kuni miyovlayverib charchadim, oxiri Heys degan chol chiqib, menga tosh otib, «Baloga yo‘liqsinda, shu mushuk!» – dedi. Men uning shu qilgan ishi uchun deraza oynasini g‘isht bilan urib sindirdim, faqat buni hech kimga aytma. (Ilyos Muslim tarjimasi, 60)

— Ha, imkon bo'lsa, sen ham “miyov” deb javob ber. O'sha o'tgan safar men senga “miyov”lashib yurgandim, oxiri chol Geys menga tosh otdi-da: «La'nati mushuk!» – dedi. Shunda men uning derazasiga g'isht otib sindirdim, lekin sen buni hech kimga aytma, xo'pmi?! (Erkin tarjima)

Dern bu matnda damn yoki darn so'zining shevadagi yoki yumshatilgan shakli sifatida talqin qilinadi. Ingliz tilida substandart (dialektal yoki norasmiy) nutqda ishlatiladigan bu leksema, asosan, so'kinish yoki achchiqlanishni ifodalashga xoslangan, ammo rasmiy uslubdan chetga chiqqan holda qo'llaniladi. Bunday turdagi yumshatilgan yoki buzilgan talaffuz janubiy Amerika shevalarida, shuningdek, Britaniya so'zlashuv nutqida ham tez-tez uchrab, unga ba'zan vulgarizm yoki yengil haqorat sifatida ham qaraladi [13].

Ko'rsatilganidek, tarjimada dern so'zi baloga yo'liqsini shaklida berilgan. O'zbekcha baloga yo'liqsini iborasi ham norozilik, la'nat yoki qarg'ish tusiga ega bo'lib, norasmiy va ba'zan substandart ohangda qo'llanishi mumkin. O'zbek so'zlashuvda, ayniqsa qarg'ish ohangida, rasmiy tildan chetga chiqqan, salbiy xarakterdagi munosabat fe'li bo'lib, kuchli norozilikni bildiradi. Balo leksemasi biror voqea-hodisa, harakat tufayli yuzaga kelgan ofat, falokat; tashvishdir [14, 76]. Uning fe'l ko'rinishi turli frazeologik birikmalarda gavdalanadi: baloga qolmoq, baloga duchor bo'lmoq, balo urmoq, balo keltirmoq va h.k. Shuningdek, duchor bo'lmoq, giriftor bo'lmoq, yo'liqmoq, baloga qolmoq, malomatga qolmoq, tuhmatga qolmoq, tashvishga qolmoq [5] kabi semantik maydonga ega.

Dern substandarti, haqiqatan, la'nat bo'lsin ma'nosiga yaqin. Shuning uchun semantik jihatdan Dern that cat!ning g'azabli, ba'zan past-baland so'zlashuv ruhini o'zbek kitobxoniga mos tarzda bera oladi. Lekin Ilyos Muslim tarjimasida La'nati shu mushuk! o'rniga Baloga yo'liqsinda, shu mushuk!... shaklidan foydalanilishi madaniy va funksional ekvivalent yondashuvining namunasidir. Tarjimon bevosita la'nat so'zini qo'llash o'rniga, o'zbek tilida odob doirasidagi (ammo hali ham salbiy hissiyotli) qarg'ish ifodasini tanlagan. Mazkur tanlov o'zbek kitobxoniga tushunarli bo'lib, izchil substandart yoki keskin norozilik ma'nosini yetkazib berishi mumkin. Darhaqiqat, dern ingliz tilida substandart dialektal kategoriya baloga yo'liqsini iborasi orqali tarjimon tomonidan milliy-madaniy libosda yetkazilgan, bunda kuchli hissiyotli norasmiy ohangni saqlashga harakat qilingan. Tarjimadagi bu ibora o'zbek o'quvchisiga emotsional zarba yetkazish qudratiga ega. U norozilik ohangini saqlaydi. Buni madaniy-moslashtiruvchi yoki funksional-ekvivalent strategiya, deb baholash mumkin. Bu tarjimada “asl substandartni buzmasdan, lekin maqsad lisoniy mentalitetga mos tushadigan shaklni topish” talab qilinishini ko'rsatadi. Shuning uchun bunda lingvokulturologik ekvilibri (muvozanat) tamoyilining amalini ko'rish mumkin. Yuqorida tilga olingan tamoyilni yana bir misolda yaqqolroq ko'rsatishga harakat qilamiz:

— Dead cat.

— Lemme see him, Huck. My, he's pretty stiff. Where'd you get him? (The Adventures of Tom Sawyer. Mark Twain, 53)

Ingliz tilidagi "stiff" – keltirilgan jumlada substandart, xususan, norasmiy tusda ishlatilgan sleng bo'lib, so'zma-so'z "qotib qolgan" yoki "bukilmaydigan darajada tarang" ma'nosini anglatadi. Berilgan kontekstda o'lik mushukning kuchli darajada qotib qolgan holatini ifodalagan. Standart neytral ifoda sifatida rigid, completely rigid yoki hard ishlatilishi mumkin bo'lgan vaziyatda, stiff so'zining qisqa va sodda shakli substandart so'zlashuvda his-tuyg'uning kuchli holatini (nobud bo'lgan hayvonning holatini emotsional-ekspressiv ifodalash) ko'rsatib beruvchi, norasmiy ohangda ijtimoiy rang-baranglikni (zamonaviy ko'cha tilini) ifodalashga xizmat qiladi. Sababi, stiffning sleng ma'nosi dead body [12] – o'lgan, o'lik bo'lib, bu ingliz tilida yoshlar orasida muntazam qo'llaniladigan sleng-leksemadir.

Endi uning o'zbek tilidagi tarjimasiga e'tibor qaratsak,

— O'lgan mushuk.

— Qani, Gek, menga ber, bir ko'ray! Juda qotirib qo'yibsan-ku. Qayerdan topding buni? (Ilyos Muslim tarjimasi, 42)

Mazkur matnda qotirib qo'yibsan fe'l birikmasi sof so'zlashuvga xos substandart ifoda bo'lib, mushukni harakatsiz holga keltirish ma'nosini emas, balki ishni do'ndirmoq, boplamoq yoki muayyan maqsadni yakuniga yetkazmoq ya'ni kontekstda mushukni o'ldirib ishni do'ndiribsan-ku ma'nosini beradi. Demak, qotirib qo'yibsan ifodasi aynan qat'iy harakatsizlatib qo'ygan ekansan ma'nosini anglatga-da, o'ziga yana kattaroq yukni oladi va bu ishni a'lo darajada, hech narsa qolmaydigan tarzda yakunlab o'ldirib qo'yibsan degan konnotativ ma'noni ham anglatuvchi substandart birlikdir. Tarjimada odatda o'lib qolibdi, yoki butunlay o'lib qolibdi kabi so'zlar bilan berilishi mumkin. Matnda My, he's pretty stiff // Juda qotirib qo'yibsan-ku, shaklida kelishi asliyatdagi norasmiy ohangni saqlagan. Stiff orqali berilgan o'lik mushukning jonsizligi va qotganligi o'zbek kitobxoniga yetarlicha konnotatsiyalari va hislari bilan yetkazadi.

Xulosa. Tarjimada lingvokulturologik jihatlariga e'tibor qaratish, ayniqsa, substandart (dialekt, sleng, argo, frazeologik birliklar) unsurlarni madaniy va uslubiy xususiyatlar bilan birga yetkazish – asar mazmunini va ruhiyatini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tarjimon ikki tildagi nutqiy kontekstni, madaniy qirralarni va og'zaki nutqda ishlatiladigan norasmiy ifodalarni puxta bilishi lozim. Qayerda so'zma-so'z tarjima qilish, qayerda madaniy ekvivalent yoki adaptatsiya usulidan foydalanish zarurligi, shu ikki til o'rtasidagi lingvokulturologik muvozanatga (ekvilibr) bog'liq. Agar bevosita kalkalash substandart ohangni yo'qotib qo'yadigan bo'lsa, funksional ekvivalent yondashuvi bilan kompenstatsiya qilish, o'zbekcha lisoniy manzaraga mos substandart yoki norasmiy ifodaga murojaat etish tavsiya etiladi. Shu tariqa, tarjimon asarda personajlarning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlarini, vaqt va makonni, og'zaki

nutqning ta'sirchanligini saqlab qoladi. Tarjimonning ikki madaniyat va ikki tildagi substandart va frazeologik birikmalarni bilishi – ayni shu muhim maqsadga erishishda hal qiluvchi omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Виноградов В.В. Очерки по стилистике русского языка. – Москва, 1963. – 287 с.
2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – Москва: Издательство института общего среднего образования РАО, 2001. – 224 с.
3. Jakobson R. On linguistic aspects of translation. In L. Venuti (Ed.), The Translation Studies Reader. – London: Routledge, 2000. – P. 113-118.
4. Jakobson R. On linguistic aspects of translation. In Essays on Language. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959. – P. 232-239.
5. Mengliyev B.R., Raupova L.R., Xamrayeva Sh.M., Elov B.B. O'zbek tilining ta'limiy korpusi. – Toshkent. 2024. <https://www.uzschoolcorpara.uz/uz/Dictionary?q=qolmoq>
6. Мусаев Қ. Таржима асослари назарияси. – Тошкент: Фан нашриёти, 2005. – 352 б.
7. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода / Дополнения и комментарии Д.И.Ермоловича. – Москва: Р.Валент, 2007. – – 244 с.
8. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи. 1978, – 222 б.
9. Tven Mark. Ilyos Muslim tarjimasi. Tom Soyerning bochidan kechirganlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 288 b.
10. Twain Mark. The Adventures of Tom Sawyer. – New York: Bantam Books, 2004. – 246 p.
11. Vinay J.P., Jean D. Stylistique comparée du français et de l'anglais: méthode de traduction. – Paris: Didier, 1958. Translated as Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1995. – 342 p.
12. Cambridge Advanced Learner's Dictionary. 3rd Edition. – Spain: Cambridge University Press. 2008, – 1820 p. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/stiff>
13. Oxford Advanced Learners Dictionary. – Oxford University Press. 10th edition, 2020. https://www.oed.com/dictionary/dern_adj
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. Б – ҳарфи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – 680 б.